

UDK:633.853

KUNJUT (SESAMUM)O`SIMLIGINING QISHLOQ XO`JALIGIDAGI AHAMIYATI

Xalmuratova Baxitgul Uzaxbergenovna

q.x.f.f.d.

Matnazarova Malika Quwatbay qizi

magistr

Qoraqalpogʻston qishloq xoʻjaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotaciya: Maqolada turli tuproq-iqlim sharoitlariga mos, serhosil, yuqori moydorlikka va isteʼmol sifatiga ega boʻlgan, shoʻrga, qurgʻoqchilikka hamda kasallik va zararkunandalarga bardoshli moyli ekinlarning mahalliy navlarini yaratish va kunjutning kelib chiqishi va etishtirish haqida maʼlumotlar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: Kunjut (Sesamum), navlar, qurgʻoqchilik, moyli ekin, iqlim, tuproq, hosildorlik.

Аннотация: В статье представлена информация о создании местных сортов масличных культур, пригодных для различных почвенно-климатических условий, высокоурожайных, обладающих высокой масличностью и потребительскими качествами, устойчивых к засолению, засухе, болезням и вредителям, а также о происхождении и выращивании кунжута.

Ключевые слова: Кунжут, сорта, засуха, масличная культура, климат, почва, урожайность.

Abstract: The article presents information on the creation of local varieties of oilseed crops suitable for various soil and climatic conditions, high-yielding, with high oil content and consumer quality, resistant to salinity, drought, diseases, and pests, as well as the origin and cultivation of sesame.

Keywords: Sesame, varieties, drought, oilseed crop, climate, soil, yield.

Kirish

Hindistonning eng qadimgi moyli ekinlaridan biri boʻlgan kunjut (Sesamum indicum L.) Yuqori yogʻ miqdori va moslashuvchanligi bilan mashhur boʻlgan kunjut keng yetishtiriladi. Ushbu mintaqalarda mintaqaviy iqlim va tuproq sharoitlariga moslashtirilgan bir nechta yaxshilangan navlar chiqarildi. Bu navlar nafaqat hosildorlik va moy miqdorini oshiradi, balki kasalliklarga chidamlilik va urugʻ sifatini yaxshilaydi, bu esa ularni ichki bozor va eksport uchun ideal qiladi.

Kunjut (Sesamum) kunjutdoshlar oilasiga mansub bir va koʻp yillik utsimon oʻsimliklar turkumi, moyli ekin. Kunjutning 19 turi maʼlum. Kelib chiqish vatani – Afrika. Oʻrta Osiyoga Hindistondan olib kelingan. Dehqonchilikda bahori ekin boʻlgan

bir yillik madaniy turi – Hindiston kunjuti (*S.indicum* L.) Hindiston, Xitoy, Jan-Sharqiy Osiyo, Afrika, Eron, O'rta Osiyoda va boshqa mamlakatlarda ekiladi. Yer yuzida Kunjut ekiladigan maydonlar 6,1 mln. ga, o'rtacha hosildorlik 3,9 s/ga, yalpi hosil 2,9 mln. t.

Kunjutning o'q ildizi tuproqqa 1 m chuqurlikka kirib boradi. Poyasi tik o'sadi, balandligi 50—150 sm, 4—6 ta uzun yon shoxlar chiqaradi. Bargi oddiy, bandli, yakka-yakka yoki qarama-qarshi joylashgan, tukli. Guli barg qo'ltig'ida 1 – 3 ta bo'lib joylashgan, 5 bargli, gul-tojibarglari bir-biriga qo'shilgan, rangi pushti, binafsha, oq, o'zidan changlanadi. Mevasi ko'sakcha, cho'ziq, yassi, tukli. Bir tupda 20—300 ko'sakcha bo'ladi. Ko'sakchasi 2 yoki 4 chanoqli. Ko'sakchasi pishganda qirralaridan chatnab, urug'i sochiladi. Bitta ko'sakchada 80 tagacha urug' bo'ladi. 1000 dona urug'i vazni 2—5 g. Urug'ining rangi och yoki to'q jigarrang, goho oq va qora.

Kunjut issiqsevar, yorug'sevar, qisqa kun o'simligi. Urug'i 15—16° da unib chiqadi. O'suv davrida harorat 15° dan past bo'lsa, o'sishdan to'xtaydi. O'sish davri 90—110 (120—150) kun. Kunjut eng qimmatli moyli ekinlardan, urugi tarkibida 65% moy, 16—19% oqsil, 16—17% azotsiz moddalar mavjud. Kunjut moyi yarim quriydi, yod soni 103—112 ga teng, zaytun moyidan ham ustun turadi. Presslab olingan Kunjut moyi iste'mol uchun, oziq-ovqat sanoatida, konserva va qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqarish, tabobat, parfyumeriyada ishlatiladi.

Afrikada bargi ovqatga solib iste'mol qilinadi. Tozalangan va maydalangan urug'i yuqori navli holvalar (taxan holvalar) tayyorlashda, non yopishda ishlatiladi. Kunjut kunjarasida 40% oqsil, 8% moy bo'ladi, mollarga ozuqa sifatida beriladi.

O'zbekistonning hamma viloyatlaridagi tomorqa, dehqon va fermer xo'jaliklarida Kunjutning Toshkent 122, Seraxs 470, Kubanets 55 navlari ekiladi.

Kunjut sur tuproqli, unumdor, dondukkakli ekinlardan bo'shagan yerlarda mo'l hosil beradi. Kunjut ekiladigan yerga ekishdan oldin gektariga 10—15 t go'ng, 60—80 kg fosfor, 20—30 kg azot solinadi, yer chuqur (25—30 sm) haydaladi, kech ko'klamda (may oyida) keng qatorlab ekiladi, qator orasi 60—70 sm, ekish chuq. 3—5 sm, ekish me'yori 1 ga yerga 5—6 kg urug' (1,5—2,0 mln. dona) ekiladi. O'suv davrida 2—3-marta kultivatsiya qilinadi, ikki marta har gektarga 40—50 kg dan azot berib qo'shimcha oziqlantiriladi. Gullashiga qadar 1 —2-marta, gullash davrida 2-marta suv beriladi. K. pishganda sarg'ayib barglari to'kiladi, pastki ko'sakchalari oldin yetiladi. Vaqtida hosil yig'ilmasa ko'sakchalar chatnab urug'i to'kilib ketadi. O'roq mashinasida o'rib-yig'ib olinadi, o'rilgan K. bog'lari xirmonda quritiladi, qo'lda yanchiladi.

Ushbu o'rganilgan kunjut navlarining o'suv davri, unib chiqishi, gullashi, ko'sakchalari va ularning poyada joylashishi, kunjut o'simligining fiziologik jarayonlari barisi o'rganilib, maqbul tavsiyalar beriladi, chunki kunjut eng tarkibidan ko'p moy saqllovchi, qurg'oqchilikka chidamli va suv kam talab qiladigan, suv taqchili bo'lgan xududlarda ham ikki marta sug'orib xosil olish mumkin bo'lgan ekinlardan biri ekanligi uchun uning iqtisodiy samaradorligini o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Urug'larida moy miqdori 62-64 foyizgacha ekanligi tajribalarda aniqlandi. Olib borilgan agrotexnik tadbirlar yordamida uning yuqori xosil olish agrotexnikasi ishlab chiqilishi asosiy vazifa xisoblanadi.

Xulosalar. Agrotexnik tadbirlardan eng muhimi ekish muddatlarini to'g'ri belgilshdir. Demak, eng avvalo kunjut navlari va ularni ekish meyorini to'g'ri tanlansa yuqori hosil olish imkoniyati vujudga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. 2022-yil 22-23-fevral kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasiga amalga oshirgan tashrifi davomida hamda 2023-yil 23-noyabrdagi 199-sonlPF

2. Amonova M. Rustamov (2017 .O'zbekiston respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat Reestri. Toshkent . 2017 y.

3. Amanova M.Ye. Kunjut ekoguruhlarining biologik xususiyatlari va seleksiya uchun birlamchi manbalar // J. Agro-ilm, Tashkent, 2012.

4. Amanova. M.E.//Biological characteristics of sesame ecogroups and primary sources for selection//Journal of Agro-science No. 1(21), 31 p. Tashkent 2012.

5. Yormatova. D. O'simlikshunoslik. Sharq. Toshkent, 2022 y.

6. Yormatova. D. Dala ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasidan amaliy mashg'ulotlar. DITAF, Toshkent, 2001 y.